

**MIKROSUVO'TLARINING MO'TADIL O'SIB-RIVOJLANISHINI TA'MINLOVCHI  
OZUQA MUHITI TANLASH**

**<sup>1</sup>Muhayo Bafoevna Tag'aeva, <sup>2</sup>Toxirov Baxtiyor Baxshullaevich**

<sup>1,2</sup>Buxoro davlat universiteti

m.b.tagaeva@buxdu.uz

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.8359231>**

**Annotatsiya.** Maqolada biostimulyatorlik xususiyatini namoyon etuvchi *B.braunii-AnDI-115* hamda *Ch.infusionum-AnDI-76* shtammlarini yirik masshtablarda etishtirish uchun mo'tadil ozuqa muhiti tanlashdan iborat.

**Kalit so'zlar:** *B.braunii-AnDI-115* hamda *Ch.infusionum-AnDI-76*, Setlik ozuqa muhiti, Tamiya ozuqa muhiti, Modifikatsiyalangan Tamiya ozuqa muhiti №1, Modifikatsiyalangan Tamiya ozuqa muhiti №2, CHu - 13 ozuqa muxiti, Chu -10 ozuqa muhiti, Hoagland's ozuqa muhiti, BG-11 ozuqa muhiti, Bold bazal ozuqa muhiti (*Bold's Basal Medium (BBM)*), Zarruk ozuqa muhiti.

**Аннотация.** В статье описан подбор умеренной питательной среды для массового культивирования штаммов *B. braunii-AnDI-115* и *Ch. infusionum-AnDI-76*, обладающих биостимулирующими свойствами.

**Ключевые слова:** *B.braunii-AnDI-115* и *Ch.infusionum-AnDI-76*, среда Сема, среда Тамия, модифицированная среда Тамия №1, модифицированная среда Тамия №2, среда Чу-13, питательная среда Чу-10, питательная среда Хогланда, питательная среда БГ-11, базальная среда Болда (ББМ), питательная среда Заррука.

**Abstract.** The article deals with the selection of moderate nutrient medium for large-scale cultivation of *B.braunii-AnDI-115* and *Ch.infusionum-AnDI-76* strains showing biostimulatory properties.

**Keywords:** *B.braunii-AnDI-115* and *Ch.infusionum-AnDI-76*, Seth medium, Tamiya medium, Modified Tamiya medium #1, Modified Tamiya medium #2, Chu - 13 medium, Chu -10 nutrient medium, Hoagland's nutrient medium, BG-11 nutrient medium, Bold's Basal Medium (BBM), Zarruk's nutrient medium.

Kirish. Ilmiy manbalardan ma'lumki, algologik ob'ektlari sanoat asosida etishtirish uchun uning maqsaddagi xususiyatidan kelib chiqqan holda tadbiqotlar rejalarashtiriladi [1]. Bundan asosiy maqsad, algologik ob'ektning maqsaddagi xususiyatidan foydalanishda iqtisodiy ko'rsatkichlapHi, jumladan, tayyor mahsulotning tannarxi arzonlashtirish, uning preparativ shaklini tanlash hamda qo'llash jarayonini qulaylashtirishdan iborat deb belgilanadi. Shuningdek, algologik ob'ektlapHing xavfsizlik ko'rsatkichlarini aniqlash ham muhim jihatlardan biridir. Bu jarayon ko'proq sianobakteriyalar asosida biopreparatlarga tegishlidir.

Biotexnologiya tarmog'ining uzviy qonuniyatlaridan biri bo'lgan tanlangan mikroorganizmlar uchun maxsus ozuqa muhiti tarkibi ishlab chiqilishi lozim. Maxsus tanlangan ozuqa muhiti mazkur mikrob-ob'ektning mo'tadil o'sib-rivojlanishi, etarli darajada biomassa hosil qilishi, hosil qilgan biomassa tarkibidagi maqsaddagi moddalapHi maksimal sintez qilishi kabi ko'rsatkichlarga javob berishi lozim.

Ilmiy manbalardan ma'lumki, mikrosuvo'tlari ozuqa muhiti tarkibiga bog'liq holda o'zining kimyoviy tabiatini namoyon etadi [2]. O'simliklar o'sishini boshqarishda yuqori ko'rsatkichlapHi namoyon etgan mikrosuvo'tlarini yirik masshtabda etishtirish uchun bir qancha

ozuqa muhitlari tarkiblari mavjud bo‘lib, mazkur ozuqa muhitlari ayni bir avlod yoki turga mansub bo‘lgan shtammlar uchun alohida ishlab chiqiladi [3].

Ishning maqsadi. Biostimulyatorlik xususiyatini namoyon etuvchi *B.braunii*-AnDI-115 hamda *Ch.infusionum*-AnDI-76 shtammlarini yirik mashtablarda etishtirish uchun mo‘tadil ozuqa muhiti tanlashdan iborat.

Foydalanilgan manba va usullar. CHigitning unuvchanligini ta’minlash bo‘yicha qishloq xo‘jaligi ekinlari urug‘larining umumiyligi unuvchanligiga qo‘yilgan talablarga javob berganligi uchun tadqiqotlarimiz *Botryococcus* avlodiga mansub *B.braunii*-AnDI-115 shtammi (*B.braunii*-AnDI-115) hamda *Chlorococcum* avlodiga mansub bo‘lgan *Ch.infusionum* -AnDI-76 shtammlari (*Ch.infusionum* -AnDI-76) asosida olib borildi.

Mikrosuvo‘tlarini o‘stirishda 10 ta turli xil tarkibli ozuqa ozuqa muhitlaridan foydalanildi (1-jadval).

#### 2.2.1-jadval. Mikrosuvo‘tlarini o‘stirishda qo‘llanilgan ozuqa muhitlari

No	Ozuqa muhiti nomi	Ozuqa muhiti tarkibi, g/l	Manba
1	Setlik ozuqa muhiti	KNO <sub>3</sub> -2,02; KH <sub>2</sub> PO <sub>4</sub> -0,34; MgSO <sub>4</sub> ×7H <sub>2</sub> O – 0,99; FeEDTA-0,0185; Ca(NO <sub>3</sub> ) <sub>2</sub> ×4H <sub>2</sub> O-0,01; H <sub>3</sub> BO <sub>3</sub> - 0,00309; MnSO <sub>4</sub> ×4H <sub>2</sub> O-0,0012; CoSO <sub>4</sub> -0,0014; CuSO <sub>4</sub> ×5H <sub>2</sub> O-0,00124; ZnSO <sub>4</sub> -0,00143; (NH <sub>4</sub> ) <sub>6</sub> Mo <sub>7</sub> O <sub>24</sub> ×4H <sub>2</sub> O-0,00184.	Hielscher-Michael et al., 2016
2	Tamiya ozuqa muhiti	KNO <sub>3</sub> -5; FeSO <sub>4</sub> ×7H <sub>2</sub> O-0,003; MgSO <sub>4</sub> ×7H <sub>2</sub> O-2,5; KH <sub>2</sub> PO <sub>4</sub> -1,25; EDTA-0,037; mikroelementlar eritmasi (ml/l): 1 ml (ZnSO <sub>4</sub> ×4H <sub>2</sub> O - 0,222; MnCl <sub>2</sub> ×4H <sub>2</sub> O - 1,81; MoO <sub>3</sub> -176,4 mg/10 l; N <sub>3</sub> VO <sub>3</sub> -2,86; NH <sub>4</sub> VO <sub>3</sub> - 229,6 mg/10 l.	Safarov va boshqalar, 2020
3	Modifikatsiya lanган Tamiya ozuqa muhiti №1	KNO <sub>3</sub> -7,5; MgSO <sub>4</sub> ×7H <sub>2</sub> O-3,75; KH <sub>2</sub> PO <sub>4</sub> -1,25; Ca(NO <sub>3</sub> ) <sub>2</sub> -0,15; FeSO <sub>4</sub> ×7H <sub>2</sub> O-0,003; EDTA-0,185. Mikroelementlar eritmasi - 1 ml: g/l: H <sub>3</sub> BO <sub>3</sub> -2,86; MnCl <sub>2</sub> ×4H <sub>2</sub> O-1,81; ZnSO <sub>4</sub> ×7H <sub>2</sub> O-0,222; MoO <sub>3</sub> -176,4 mg/10l; NH <sub>4</sub> VO <sub>3</sub> -229,6 mg/10 l; CuSO <sub>4</sub> ×5H <sub>2</sub> O-0,01 mg/l; Co(NO <sub>3</sub> ) <sub>2</sub> ×4H <sub>2</sub> O-0,146; KJ-0,083; NaWO <sub>4</sub> ×H <sub>2</sub> O- 0,033; NiSO <sub>4</sub> (NH <sub>4</sub> )SO <sub>4</sub> ×6H <sub>2</sub> O-0,198.	Mitishev i dr., 2017
4	Modifikatsiya lanган Tamiya ozuqa muhiti №2	(NH <sub>4</sub> ) <sub>2</sub> SO <sub>4</sub> -3,0; MgSO <sub>4</sub> ×7H <sub>2</sub> O-3,75; KH <sub>2</sub> PO <sub>4</sub> -1,87; FeSO <sub>4</sub> ×7H <sub>2</sub> O-0,0045; EDTA-0,185. Mikroelementlar eritmasi - 1 ml: g/l: H <sub>3</sub> BO <sub>3</sub> -2,86; MnCl <sub>2</sub> ×4H <sub>2</sub> O-1,81; ZnSO <sub>4</sub> ×7H <sub>2</sub> O-0,222; MoO <sub>3</sub> -176,4 mg/10l; NH <sub>4</sub> VO <sub>3</sub> - 229,6 mg/10 l; CuSO <sub>4</sub> ×5H <sub>2</sub> O-0,01 mg/l; Co(NO <sub>3</sub> ) <sub>2</sub> ×4H <sub>2</sub> O-0,146; KJ-0,083; NaWO <sub>4</sub> ×H <sub>2</sub> O- 0,033; NiSO <sub>4</sub> (NH <sub>4</sub> )SO <sub>4</sub> ×6H <sub>2</sub> O-0,198.	Mitishev i dr., 2017
5	CHu - 13 ozuqa muxiti	KNO <sub>3</sub> -0,2, K <sub>2</sub> HPO <sub>4</sub> -0,04, MgSO <sub>4</sub> ×7H <sub>2</sub> O-0,1, CaCl <sub>2</sub> ×6H <sub>2</sub> O-0,08, temir sitrat-0,01, limon kislotasi – 0,1, bor-0,5 ppm, MnSO <sub>4</sub> ×7H <sub>2</sub> O-0,5 ppm, CuSO <sub>4</sub> ×5H <sub>2</sub> O-0,02 ppm, CoCl <sub>2</sub> ×2H <sub>2</sub> O-0,02 ppm, Na <sub>2</sub> MoO <sub>4</sub> ×2H <sub>2</sub> O-0,02 ppm, pH 7,5.	Bozorova va boshqalar., 2021

6	Chu -10 ozuqa muhiti	Na <sub>2</sub> SiO <sub>3</sub> ×9H <sub>2</sub> O-5; Ca(NO <sub>3</sub> ) <sub>2</sub> ×4H <sub>2</sub> O-57,56; K <sub>2</sub> HPO <sub>4</sub> -10; MgSO <sub>4</sub> ×7H <sub>2</sub> O- 25; Na <sub>2</sub> CO <sub>3</sub> -20; Vitamin B12 – 5mg/5 ml suvda tayyorlanadi; Biotin – 1 mg/10ml suvda tayyorlanadi. Na <sub>2</sub> EDTA×2H <sub>2</sub> O-1.00; Temir sitrat-6,00; Limon kislota-6,00; H <sub>2</sub> SeO <sub>3</sub> -0,163. pH Na <sub>2</sub> SiO <sub>3</sub> ×9H <sub>2</sub> O bilan to‘g‘irlanadi. Agarda temir sitrat yoki limon kislota bo‘lmasa FeCl <sub>3</sub> ×6H <sub>2</sub> O-3,15 g/l va Na <sub>2</sub> EDTA×2H <sub>2</sub> O-4,36 g/l, 1litrga 1 ml solinadi. Metal elementlari (g/l): H <sub>3</sub> BO <sub>3</sub> -2,86; MnCl <sub>2</sub> ×4H <sub>2</sub> O-1,81; ZnSO <sub>4</sub> ×7H <sub>2</sub> O-0,222; Na <sub>2</sub> MoO <sub>4</sub> ×2H <sub>2</sub> O-0,390; CuSO <sub>4</sub> ×5H <sub>2</sub> O-0,079; Co(NO <sub>3</sub> ) <sub>2</sub> ×6H <sub>2</sub> O-0,0494.	Stein., 1973
7	Hoagland’s ozuqa muhiti	(NH <sub>4</sub> ) <sub>2</sub> NO <sub>3</sub> -0,115; H <sub>3</sub> BO <sub>3</sub> -0,008; Ca(NO <sub>3</sub> ) <sub>2</sub> – 0,656; CuSO <sub>4</sub> – 0,08 mg; Fe(C <sub>4</sub> H <sub>4</sub> O <sub>6</sub> ) <sub>3</sub> -0,005; MgCl <sub>2</sub> – 0,24; MnCl <sub>2</sub> -0,016 mg; KNO <sub>3</sub> – 0,3; ZnSO <sub>4</sub> -0,22 mg.	Anderson., 2005
8	BG-11 ozuqa muhiti	NaNO <sub>3</sub> -1,5 CaCl <sub>2</sub> ×2H <sub>2</sub> O-0,036 Temir ammoniy sitrat-0,012; EDTA×Na <sub>2</sub> ×2H <sub>2</sub> O-0,001; K <sub>2</sub> HPO <sub>4</sub> -0,04; MgSO <sub>4</sub> ×7H <sub>2</sub> O-0,075; Na <sub>2</sub> CO <sub>3</sub> -0,02; Mikroelementlar eritmasi - 1 ml/l: H <sub>3</sub> BO <sub>3</sub> -2,86; MnCl <sub>2</sub> ×4H <sub>2</sub> O-1,81; ZnSO <sub>4</sub> ×7H <sub>2</sub> O-0,222; Na <sub>2</sub> MoO <sub>4</sub> ×2H <sub>2</sub> O-0,39; CuSO <sub>2</sub> ×5H <sub>2</sub> O-0,079; Co(NO <sub>3</sub> ) <sub>2</sub> ×6H <sub>2</sub> O-0,049	Ji Won Hong et al., 2016
9	Bold basal ozuqa muhiti (Bold’s Basal Medium (BBM))	NaNO <sub>3</sub> -25; CaCl <sub>2</sub> ×2H <sub>2</sub> O-2,5; MgSO <sub>4</sub> ×7H <sub>2</sub> O-7,5; K <sub>2</sub> HPO <sub>4</sub> -7,5; KH <sub>2</sub> PO <sub>4</sub> -17,5; NaCl-2,5; EDTA (31 g KOH)- 50; FeSO <sub>4</sub> ×7H <sub>2</sub> O (1 ml H <sub>2</sub> SO <sub>4</sub> )-4,98; H <sub>3</sub> BO <sub>3</sub> -11,42; ZnSO <sub>4</sub> ×7H <sub>2</sub> O-8,82; MnCl <sub>2</sub> ×4H <sub>2</sub> O-1,44; CuSO <sub>4</sub> ×5H <sub>2</sub> O-1,57; Co(NO <sub>3</sub> ) <sub>2</sub> ×6H <sub>2</sub> O-0,49	Anderson., 2005
10	Zarruk ozuqa muhiti	NaHCO <sub>3</sub> -16,8; K <sub>2</sub> HPO <sub>4</sub> ×3H <sub>2</sub> O- 1,0; NaNO <sub>3</sub> -2,5; K <sub>2</sub> SO <sub>4</sub> - 1,0; NaCl - 1,0; MgSO <sub>4</sub> ×7H <sub>2</sub> O- 0,2; CaCl <sub>2</sub> ×2H <sub>2</sub> O- 0,04; Fe+EDTA-1,0 ml; 1-mikroelementlar eritmasi (g/l): H <sub>3</sub> BO <sub>3</sub> -2,86; MnCl <sub>2</sub> ×4H <sub>2</sub> O-1,81; ZnSO <sub>4</sub> ×7H <sub>2</sub> O-0,22; CuSO <sub>4</sub> ×5H <sub>2</sub> O- 0,08; MoO <sub>3</sub> -0,015. 2-mikroelementlar eritmasi (g/l): NH <sub>4</sub> VO <sub>3</sub> - 0,023; K <sub>2</sub> Cr <sub>2</sub> (SO <sub>4</sub> ) <sub>4</sub> ×24H <sub>2</sub> O - 0,096; NiSO <sub>4</sub> ×7H <sub>2</sub> O - 0,048; Na <sub>2</sub> WO <sub>4</sub> ×2H <sub>2</sub> O - 0,018; Ti <sub>2</sub> (SO <sub>4</sub> ) <sub>3</sub> - 0,040; Co(NO <sub>3</sub> ) <sub>2</sub> ×6H <sub>2</sub> O -0,044.	Anderson., 2005

Algologik ob’ektlarning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish uchun ba’zi bir texnologik ko‘rsatkichlar sifatida, standart qiymatlarni qabul qilindi, jumladan, barcha ozuqa muhitlarining muhit ko‘rsatkichlari pH-6,8 qilib olindi. Ob’ektlarning havo bilan ta’milnanish jarayoni uchun 50 m<sup>3</sup>/l hisobida havo purkash orqali berib turildi. SHuningdek, har kuni ikki marotaba umumiy hajunga nisbatan 1% miqdorida SO<sub>2</sub> purkash orqali berib borildi. Shuningdek, barcha tadqiqotlar kamida uch marotaba takrorlanib, olingan natijalar Fisher qiymatlari asosida tahlil qilindi.

Mikrosuvotlari biomassasi asosida chigitlar unuvchanligini aniqlash.

Mikrosuvotlari asosida urug‘lapHing unib chiqish indeksi va unuvchanlik kuchi quyidagi formula asosida hisoblandi:

$$\text{Urug‘ unuvchanlik indeksi (GI)} = (7 \times N1) + (6 \times N2) + \dots + (1 \times N7) [8]$$

Bu erda N1, N2.....N7 birinchi, ikkinchi va keyingi kunlarda 7-kungacha unib chiqqan chigitlar soni, ko‘paytiruvchilar esa unib chiqish kunlarida berilgan og‘irliliklardir [22].

Unuvchanlik tezligi (SG) = N1/D1 + N2/D2+N3/D3.....+ N7/D7, bu erda N = unib chiqqan chigitlar soni va D = unib chiqish kunlari [Mutum et al., 2023].

Unuvchanlik indeks darajasi (GRI), %/kun = G1/1 + G2/2 +.....+ G7/7, bunda G1, G2.....G7 = har bir kundagi unib chiqish foizi ×100 [22].

G'o'za barglarida xlorofill a va b miqdorini aniqlash. Ushbu usul organik erituvchi atseton yordamida barglapHi ekstraksiya qilib xlorofil a va b fraksiyalarini tegishli to'lqin uzunliklarida spektrofotometr bilan pigmentlar miqdorlarini hisoblashga asoslangan. [90; S. 271], [157; C. 365], [158; C.483].

Olti dona barg kesib olinadi, maydalanadi, aralashtiriladi va analitik torozda 200 mg dan uchta namuna olinadi. Namunalarga  $\text{SaSO}_3$  qo'shilgan holda stupkada maydalanadi. 80% li atseton oz-ozdan qo'shilib gomogen holatigacha ekstraksiyalanadi.

Modda miqdoriy jihatdan №3 va №4 belgilangan SHot filtlariga o'tkaziladi va vakuum nasos orqali Bunzen kolbasiga yaxshilab pigmentlapHi atseton bilan yuvib filtrlanadi. Filtratni oson olish uchun kolbaga 20 ml li probirka o'pHatlidi. Keyin filtrat probirkadan 50 ml li kolbaga olinadi va kerakli hajmgacha olib boriladi va to'lqin uzumligi (xlorofill "a" uchun-  $E_{663}$ , yoki  $D_{665}$ , xlorofill "b" uchun -  $E_{645}$  yoki  $D_{649}$ ) to'lqin uzunliklarida, a va b xlorofillar uchun spektrofotometrda ekstinksiya (E) yoqi yorug'ligni singdirish (D) ko'rsatkichlari aniqlanadi.

Hisoblash quyidagi formulalar bo'yicha amalga oshiriladi  $C_a = 12,7 E_{663} - 2,69 E_{645}; S_b = 22,9 E_{645} - 4,63 E_{663}; S = C_a + S_b = 8,02 E_{663} + 20,2 E_{645}$  [90; S. 86-94] yoki  $S_a = 11,63 D_{665} - 2,39 D_{649}; C_b = 20,11 D_{649} - 5,18 D_{655}; C_{a+b} = 6,45 D_{665} + 17,72 D_{649}$  [137; P. 350-382], [55; C. 392].

$C_a$  – xlorofill a konsentratsiyasi;  $S_b$  - k xlorofill b konsentratsiyasi

$S$  - xlorofill a va b yig'indi konsentratsiyasi.

Xlorofill konsentratsiyasi mg/l.da hisoblanadi. Bir gramm ho'l moddada pigmentlar konsentratsiyasini hisoblab chiqish uchun quyidagi formuladan foydalanildi:

$$M_{chlorophyll} = \frac{K \times V}{P}$$

K — bu  $S_a$ ,  $S_b$  yoki  $S$ ; V — suytirish hajmi; R — namunani vazni 0,2 g.

Barglarda quruq moddani % miqdorini bilib turib xorofill miqdorini hisoblash mumkin.

Mikrosuvo'tlarining xlorofill saqlash ko'rsatkichlari Alain Aminot va Francisco Rey (2000) tomonidan izlanishlar uchun taqdim etilgan standart usullarda aniqlandi. Jumladan, tadqiqotlar uchun standart asosidagi quyidagi birlik ko'rsatkichlari qabul qilindi:

Spektrofotometriya → trixromatik usul uchun [Alain Aminot et al., 2000]:

Xlorofill a=(11,85\* (E664-E750)-1,54\* (E647-E750)-0,08 (E630-750))\*Ve/L\*Vf;

Xlorofill b=(-5,43\* (E664-E750)+21,03\* (E647-E750)-2,66 (E630-E750))\*Ve/L\*Vf;

Xlorofill c=(-1,67\* (E664-E750)-7,60\* (E647-E750)+24,52 (E630-E750))\*Ve/L\*Vf;

Bu erda: L-kyuyetaning yorug'lik yo'li, santimetrda; Ve-millilitrdagi ekstraksiya hajmi; Vf-filtrlangan jam litrda; konsentratsiyalar  $\text{mg m}^{-3}$  birlikda olingan.

Spektrofotometriya → kislotalash yo'li orqali monoxromatik usul [23]:

Xlorofill a = 11,4\*K\*((E665o - E750o) - (E665a - E750a))\*Ve /L\*Vf;

Feopigmatlar a = 11,4\*K\*((R\*(E665a - E750a)) - (E665o - E750o))\*Ve /L\*Vf;

Bu erda: L-kyuyetaning yorug'lik yo'li, santimetrda; Ve-millilitrdagi ekstraksiya hajmi; Vf-filtrlangan hjam litrda; R-Feopigmatlar yo'qligida E665o/E665a ning maksimal absorblanish nisbati=1,7. K=R/(R-1)=2,43. Konsentratsiyalar  $\text{mg m}^{-3}$  birlikda olingan.

Fluorometriya usuli [Alain Aminot et al., 2000]:

$$\text{Xlorofill a} = K^*(Fm/(Fm - 1))^* Ve^*(Fo - Fa)/Vf$$

$$\text{Feopigmentlar a} = K^*(Fm/(Fm - 1))^* Ve^*((Fm^*Fa) - Fo)/Vf$$

Bu erda:  $K$ =kalibrovka koeffsienti = $\mu\text{g Chl a ml}$ , 90% atseton uchun asbobning flyurensiyalash birligi.

$Fm$  = toza xlorofill a standartining maksimal kislota nisbati ( $Fo/Fa$ ).

$Fo$  = kislotalanishdan oldingi namuna flyurensiyalanish.

$Fa$  = kislotalanishdan keying namunaning flyurensiyalanish ko'rsatkichi.

$Ve$  = ekstraksiya hajmi millilitrda.

Vf-filtrlangan hjam litrda;

Konsentratsiyalar  $\text{mg m}^{-3}$  birlikda olingan.

Olingen natijalar va ularning muhokamasi. 1.1.1-jadvalda aks ettirilgan ma'lumotlapHi tahlil qilganimizda, Setlik ozuqa muhitida etishtirilgan *B.braunii*-AnDI-115 va *Ch.infusionum*-AnDI-76 mikrosuvo'tlari kulturalari turli xildagi biokimyoiy xususiyatlapHi namoyon etganligi kuzatildi. Jumladan, hujayralar sonining sinxron ko'payish ko'rsatkichi bo'yicha *Ch.infusionum*-AnDI-76 shtammi o'strishning uchinchi kunida  $4,6 \times 10^2$  ko'rsatkichdan, o'strishning ettinchi kunida  $2,1 \times 10^3$  darajasigacha ya'ni bir marotabaga tabaqalangan bo'lsa, o'strishning 10-kuniga kelib, ettinchi kunga nisbatan ham ikki marotabaga tabaqalangan holda oshib,  $1,7 \times 10^4$  darajasiga etkanligi qayd etildi. Mazkur sinxron o'sish ko'rsatkichi uchinchi kunga nisbatan ettinchi kunda *B.braunii*-AnDI-115 shtammiga nisbatan taqqoslanganda sezilarli darajada hujayralar soni farq qilishi aniqlandi. Jumladan, *Ch.infusionum*-AnDI-76 shtammi kulturani o'strishning ettinchi kunida bir ml ozuqa muhitida 210000 hujayrani tashkil etgan bo'lsa, va *B.braunii*-AnDI-115 shtammi 530000 hujayra soniga etganligi qayd etildi. O'strishning o'ninchи kunida esa *Ch.infusionum*-AnDI-76 shtammi 170 000 hujayra soniga etgan bo'lsa, *B.braunii*-AnDI-115 va shtammida bu ko'rsatkich 320000 xujayrani tashkil etganligi kuzatildi.

Olingen natijalapHi qiyosiy tahlil qilganimizda Setlik ozuqa muhitida *Ch.infusionum*-AnDI-76 shtammiga nisbatan *B.braunii*-AnDI-115 shtammi ko'proq, 150 ming/ml hujayra sonini ko'proq hosil qilganligini ko'rish mumkin. Keyingi tadqiqotlarda mazkur ozuqa muhitida kulturalarning biomassa hosil qilishi kuzatildi. Olingen natijalarga ko'ra hujayra quruq massasiga hosil qilish ko'rsatkichiga ko'ra, *Ch.infusionum*-AnDI-76 shtammi *B.braunii*-AnDI-115 shtammiga nisbatan yuqoriqoq biomassa hosil qilganligi qayd etildi. Jumladan, o'strishning 10-kunida olingen natijalarga ko'ra *Ch.infusionum*-AnDI-76 shtammi 4,8 g/l biomassa hosil qilgan bo'lsa, *B.braunii*-AnDI-115 shtammi 2,6 g/l biomassa hosil qilganligi aniqlandi.

Olingen natijalardagi nomuvofiqliklar ya'ni, *Ch.infusionum*-AnDI-76 shtamming kam miqdorda hujayra soni bilan ( $1,7 \times 10^4$ ) biomassa hosil qilishida, nisbatan yuqoriqoq hujayra sonini ( $3,2 \times 10^4$ ) hosil qilgan *B.braunii*-AnDI-115 shtammiga nisbatan 2,2 g/l ko'p quruq biomassa hosil qilganligi ilmiy asoslangan izoh talab qiladi (1.1.1-jadval). SHu boisdan, tadqiqotlar davomida olib borilgan kunlik kuzatishlapHi qayta tahlil qilish natijasida, Setlik ozuqa muhitining pH ko'rsatkichi o'strishning ettinchi kundan o'ninchи kunigacha nisbatan kamayib borganligi qayd etildi. Jumladan, *B.braunii*-AnDI-115 shtammi etishtirilgan ozuqa muhitida o'strishning uchinchi kunida pH-6,7 ni tashkil etgan bo'lsa, etishtirishning 7 kunida pH 6,2 ko'rsatkichini, o'strishning 10-kunida esa pH ko'rsatkichi 5,8 darajasini tashkil etganligi qayd etildi. *Ch.infusionum*-AnDI-76 shtamming pH ko'rsatkichlari mos ravishda uchinchi kunda pH-6,8 ettinchi kunda, o'strishning pH-6,0, o'ninchи kunida pH-5,3 ya'ni kislotali ko'rsatkichni namoyon etganligi qayd etildi.

Shu boisdan olingan natijalar qaytadan hisob kitob qilish uchun o'stirish ko'rsatkichlari takroran o'tkazildi. Olingan natijalarga ko'ra ozuqa muhitining kislotalik ko'rsatkichi hujayralar biomassasini hisoblashda sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmasligi, bunda asosiy faktor sifatida hujayralapHing o'lchami va hajimidagi farqlar ham kulturaning biomassa hosil qilish ko'rsatkichni sezilarli darajada o'zgartirgan bo'lishi mumkin degan xulosaga kelindi.

1.1.1-jadval. Setlik ozuqa muhitida algologik ob'ektlapHing o'sib-rivojlanish ko'rsatkichlari va ba'zi bir biokimyo viy xususiyatlari

№	Tanlangan algologik ob'ektlar	Kunlar kesimida hujayralar soni			Huja yra quru q mass asi, g/l	Pigmentlar miqdori, mg/l					
		3	7	10		xlorofill a	xlorofill b	Umumiy karotinoidlar midaori %	Umumiy pigmentlar midaori %	Umumiy pigmentlarga nisbatan karotinoid midaori %	a va b xlorofill nisbati
1	<i>B.braunii</i> - AnDI-115	$2,1 \times 10^3$	$5,3 \times 10^3$	$3,2 \times 10^4$	$4,8 \pm 0,58$	$9,84 \pm 0,12$	$5,17 \pm 0,37$	$2,23 \pm 0,09$	$17,24 \pm 0,36$	$12,94 \pm 0,13$	1,9
2	Ch.infusionum - AnDI-76	$4,6 \times 10^2$	$2,1 \times 10^3$	$1,7 \times 10^4$	$2,6 \pm 0,17$	$7,14 \pm 0,27$	$3,68 \pm 0,41$	$2,13 \pm 0,53$	$12,95 \pm 0,11$	$16,45 \pm 0,24$	1,9

Izoh: Kulturaning dastlabki ekilgan hujayralar soni –  $2,5 \times 10^2$ ; Hujayra quruq massasi va pigmentlar miqdori 10 kunlik hujayrada aniqlangan. P<0,05

3.2.1.1-jadval. Setlik ozuqa muhitida etishtirilgan mikrosuvotlarining chigit unuvchanligiga ta'siri

№	Tanlangan algologik ob'ektlar	Kunlar kesimida chigitning unuvchanligi, %			15 kunlik niholning biometrik ko'rsatkichlari			15 kunlik niholning xlorofill miqdori, mg/g quruq barg hisobida		
		3	5	7	Nihol uzunli gi, sm	Niholni ng ho'1 massasi , g	Ildiz mass asi, g	a	b	a+b
1	<i>B.braunii</i> - AnDI-115	$32,41 \pm 0,18$	$53,07 \pm 0,15$	$68,56 \pm 0,23$	$7,13 \pm 0,13$	$25,27 \pm 0,03$	$0,13 \pm 0,33$	10,48	6,72	17,2
2	Ch.infusionum - AnDI-76	$28,13 \pm 0,06$	$42,26 \pm 0,32$	$57,40, 373 \pm ,03$	$6,24 \pm 0,03$	$23,04 \pm 0,33$	$0,11 \pm 0,58$	11,23	8,11	19,34
3	Nazorat (IUK, $10^{-3}M$ )	$43,37 \pm 0,17$	$68,14 \pm 0,41$	$92,12 \pm 0,08$	$9,56 \pm 0,48$	$36,24 \pm 0,17$	$0,32 \pm 0,23$	16,21	9,04	25,25

## REFERENCES

- Özdemir., 2016
- Thomas G.TopHabene et al., 1985; Kiran et al., 2021

3. Muzaffarov i dr., 1984; Saikia et al., 2011; Alejandra Sánchez-Bayo et al., 2020; Charmaine Lloyd et al., 2021.
4. Cabanelas et al., 2016; Rahman et al., 2022
5. Halil Berberoglu et al., 2009; Miao G. Et al., 2015.
6. Maltsev et al., 2021; Sun et al., 2023.
7. Yu Yu et al., 2017; Alain Aminot et al., 2000.
8. Mutum et al., 2023.
9. Ferreira et al., 2017; Rinawati et al., 2020; Sampath et al., 2017.
10. Tokhirov B.B., Mustafayev X., Tagayeva M.B. Production of microscopic always, their use in livestock and poultry // Ekonomika i sotsium. 2021, №. 4-1. p.426-427.
11. Xodjimurodova N.R., Xakimova N.X., Togaeva M.V. Buxoro voxasi sugoriladigan o'tloqi allyuvial tuproqlarida mikroorganizmlar faolligi // Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari tuplami.Guliston, 2020. 166 b.
12. M.B. Togaeva, Z.T.Safarova, N.A.Azizova. Main sources of increasing the productivity of alluvial soils of medium salt grazine of bukhara region // JoupHalNX. – T. 6. – №. 06. p. 88-93.
13. Xodjimurodova N., Xakimova N., Tagaeva M. Biologicheskaya aktivnost pochv Buxarskogo oazisa v zavisimosti ot stepeni. Toshkent, 2020, c. 1061-1064.
14. Anderson R.A. 2005. Algal culturing Techniques. Elsevier Academic Press, San Diego CA., USA. Pp.589.
15. Beale S.I. Enzymes of chlorophyll biosynthesis. Photosynthesis Research, 1999, 60: 43-73 (doi: 10.1023/A:1006297731456).
16. Nakagawara E., Sakuraba Y., Yamasato A., Tanaka R., Tanaka A. Clp protease controls chlorophyll b synthesis by regulating the level of chlorophyllide a oxygenase. Plant J., 2007, 49: 800-809 (doi: 10.1111/j.1365-313X.2006.02996.x).
17. Sakuraba Y., Yokono M., Akimoto S., Tanaka R., Tanaka A. Deregulated chlorophyll b synthesis reduces the energy transfer rate between photosynthetic pigments and induces photodamage in *Arabidopsis thaliana*. Plant Cell Physiol., 2010, 51: 1055-1065 (doi: 10.1093/pcp/pcq050).
18. Elizarova V.A. 1974. Soderjanie fotosinteticheskix pigmentov v edinitse biomassы fitoplanktona / V.A. Elizarova // Trudy in-ta biol. vnutr. vod. – L., 1974. – Вып. 28 (31). – С. 46–64.
19. Dere S., Guenes T., Sivaci R. 1998. Spectrophotometric determination of chlorophyll – A, B and total carotenoid contents of some algae species using different solvents. Tr. J. of Botany. 22: 13–17.
20. Elizarova V.A. Soderjanie fotosinteticheskix pigmentov v fitoplanktone vodoemov raznogo tipa: avtoref. dis. kand. biol. nauk: 03.00.18 / V.A. Elizarova; Institut biologii vnutrennix vod AN SSSR. – Moskva, 1975. – 24 s.
21. Muzafarov A. M., Taubaev T. T. Kultivirovanie i primenie mikrovodorosley //Tashkent: Fan UzSSR. – 1984.
22. Mutum et al., 2023
23. Alain Aminot et al., 2000